

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA AYOL TIMSOLI

Maxamadxodjayeva Umida To'raxodjayevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchi

umidamaxamadxodjayeva@uzswlu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'riyatida ayol timsolining badiiy talqini, uning mazmun-mohiyati, shuningdek, ifoda usullari tahlil qilingan. Bunda asosan shoir o'z she'rlarida ayol timsolini badiiy tasviriy vositalardan mohirona foydalangan holda ochib berganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, she'riyat, ifoda usullari, badiiy talqin, ayol timsoli, tahlil, adabiy muhit, badiiy tasviriy vositalar.

Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar kishilar tafakkuri va dunyoqarashida ham yangicha qarashlarni vujudga keltiradi. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayot va unda yashayotgan odamlarning qalb kechinmalarini aks ettirar ekan, tub o'zgarishlar, avvalo, badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi. Zero, "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"¹, – degan so'zlar zamirida adabiyot va san'atning kishilik jamiyatidagi beqiyos o'rni haqidagi fikrlar mujassam.

She'riyat- betakror san'at turi. Unda shoir inson qalbida kechadigan so'z bilan izohlash juda mushkul bo'lgan his-tuyg'ularni, ruhiy olamning manzaralarini qalb ko'zi bilan ko'radi. She'r shuning uchun ham qadrligi, unda ma'naviyat atalmish insongagina xos bo'lgan bebaho ne'mat ildizi suv ichadi, tasavvurlar jonlanadi.

Adabiy asarning san'atga daxldorligi uning badiiyatida ko'zga tashlanadi. She'rning badiiyati, badiiy tasvir vositalari o'rnida bo'lsa, o'z talabasida badiiy did shakllanishiga xizmat qiladi. Har qanday tizmalar ham she'r emasligiga, so'zdan so'zning farqi borligini tushunishga o'rgatadi. Adabiyot dunyoga kelgan davrlardan buyon jahon shoirlari orasida nazmning juda ko'p janrlari, xilma-xil yo'l va yo'nalishlarida she'r yozish an'analari paydo bo'ldi. Dunyo xalqlari orasida, bizning millatimiz adabiyotida ham badiiy ijod borasida maqtansa, faxrlansa arziqli yangilanishlar, topilmalar qilindi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Yangi davr o'zbek lirikasi haqida gap ketganda, shubhasiz, zabardast, yetuk shoir, ustoz E.Vohidov she'riyatiga to'xtalish juda o'rinli, fikrimizcha. Shoirning "Ishq savdosi" to'plamidagi "Yoshlik devoni"dan o'rin olgan she'rlarning o'ziga xos jihatlarini, ularda qo'llangan go'zal she'riy san'atlar haqida yozishga chog'landik.

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi, 2017, 4-avgust.

Boisi, ustoz shoirimiz she'riyati yosh ijodkorlarga badiiy ijodning o'ziga xosligini va o'zbek she'riyatining boy an'alarini eslatib turadi. Mumtoz adabiyotimizdagi Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy kabi mashhur so'z san'atkorlari ijodida ko'p uchraydigan badiiy tasvir vositalari, go'zal o'xshatish va topilmalar Erkin Vohidov she'riyatida ham o'ziga xos jilolanadi:

*Aslida kim qarardi Yotganida xor surma,
Bo'ldi aziz, ko'ziga Surganida yor surma.*

Misralarda shoir oddiy detal surma orqali yorning oshiq oldida nechog'lik azizligiga, ayni paytda yetishish juda mushkul ekanligiga ishora qiladi. Agar yorga yetishish mushkul bo'lmaganida, surma ham bunchalik qorayib ketmagan bo'lardi.

*Yor ko'ziga yetishmak Savdo ekanku dushvor,
Yonib ko'mir bo'libdi, Bechora xor surma.*

Shoirning: ... *Bandga tushgan bu ko'nguldur, Menda ayting, ne gunoh,
Dilqushi gadom qo'ygan Ul ikki joduda ayb.
Joduko'zlar bandi yolg'iz Sen emastushkunyorak,
Avval-oxir ko'hna meros Ishq degan tuyg'uda ayb.*

misralarini o'qir ekanmiz, beixtiyor A.Navoiyning: *Jong'achundermen: "Ne erdi o'lma kim kayfiyati"* Derki: *"Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati"*, matlali g'azalini esga olamiz. Navoiy bu g'azalida qo'llagan tasvirni shoir Erkin Vohidov takrorlamaydi, lekin she'rda mumtoz adabiyot ruhi sezilib turadi, ayni paytda asarda o'ziga xos yondashish borligi ko'rinadi. Agar she'rda badiiy tasvir vositalari o'z o'rnida zargarona o'lchov bilan qo'llansa, bu she'rning go'zal bezak berilgan libosi bo'ladi. Ustoz shoir ijodida aynan shu jihat ustunlik qiladi:

*Ul parivash chehrasini Oyga etgandim qiyos,
Bir uzr aytadurman, Bu xato timsol uchun.
Hajrda qaddimni dol etding, desam, bergay javob:
Kim qo'yubdur sevgini Qaddi bukilgan chol uchun.*

Oshiq yorning chehrasini oyga o'xshatadi, lekin bu o'xshatish xato ekanligiga o'zi iqrorligi misralarda ifodalangan. Keyingi misrada ma'shuq tilidan aytilgan javob bilan she'rning qimmatini yana oshiradi.

O'zbek mumtoz adabiyotimizning yetuk vakili Lutfiy hazratlarining boshdanoyog'ir soli masal san'ati asosida yozilgan "Ayoqingga tushar har lahzagisu"

misrali mashhur gʻazali adabiyot ixlosmandlariga yaxshi tanish. Bu usulda sheʼr yozish ijodkordan ziyrak, sinchkov boʻlishni ham talab etadi. Shuning uchun bu yoʻnalishdagi gʻazallarni sanoqli deyish mumkin. Lutfiydek buyuk shoir qoʻl urgan usulda sheʼr yozishga kirishishning oʻzi ijodiy jasorat ekanligini inobatga olsak, Erkin Vohidov mahoratidan maʼnaviy zavqlanamiz. Sheʼrning muvafaqqiyatli chiqishi zamonaviy oʻzbek lirikasida oʻziga xos voqea boʻldi.

*Ajab, vaslingga men endi Yetishganda koʻrindimoh,
Masal borkim, ogʻiz oshga Burun toshga tegibdirvoh!
Kulib yurgay erdim birvaqt Oʻqib Majnun jununidan,
Degaylar, oʻzgadin kulma Oʻzingdan boʻlmay sen ogoh.
Seving, deb sheʼr biti bavval, Oʻzim boʻldim asiri ishq.
Oʻzi tushgay emish oxir, Birovga qazgʻay choh.
Parivash zulmidan boʻldi Koʻngil mulki parishon hol.
Demishki mulk vayrondir Agar zolimlik qilsa shoh.
Boʻlib san oshiq, Erkin, Uz umidjondin, oʻkinchqilmay,
Oʻzingga, deydilar, dushman Keyinchekanpushaymonoh.*

Oʻzbek sheʼriyatida boʻrttirib tasvirlash, mubolagʻali oʻxshatishlar qilish anʼana tusiga kirgan. Erkin Vohidov ham shu anʼanalarga sodiq qolganligi koʻrinib turadi:

*Deydilar ishq otashidan Oftob ham taft olur,
Gar isinmoq istasa Qalbinga job oʻlsin quyosh.*

Darhaqiqat, ustoz Erkin Vohidov sheʼrlaridan bahramand boʻlar ekanmiz, shoir ijodi mumtoz lirikamiz bilan zamonaviy sheʼriyatimiz oʻrtasidagi koʻprik dek tuyuladi, goʻyo. Nazmimizning eng jozibali, goʻzal badiiy timsollari shoir ijodida yana ham oʻzgacha ranga kirib, ruhimiz sarhadlarini sheʼriyatning ajib iforlari bilan toʻldirgandek boʻladi. Oʻziga xos sheʼriyatimiz va uning munosib ustunlari borligini anna shunday lahzalarda yanada teranroq his etamiz. Yangi-yangi yoʻnalishlardagi nazm turlari paydo boʻlayotgan, adabiyot inson ruhining eng inj asohillarigacha kirib borayotgan bir davrda, sheʼriyatning qaysi yoʻl bilan boʻlmasin maʼnaviy olamni poklashdagi oʻrni, ahamiyatini yoʻqotmasligi haqiqat. Mumtozlikamiz boy anʼanalarining munosib davom etishi oʻzbek sheʼriyatining dunyo adabiyotidagi oʻrni va hissasini yana ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi, 2017, 4-avgust.
2. Saylanma: 2-jildlik\so'z boshi muallifi I. G'ofurov.-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. E. Vohidov. Ishq savdosi: saylanma. J.1. Toshkent: Sharq.-476 b.
4. E. Vohidov. Yoshlik devoni. –Toshkent:G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.-158 b.